



**O‘zbekiston mehnat qonunchiligida elektron shartnoma
institutining shakllanishi va rivojlanishi**

Sultonov Jasur Rustam o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mehnat huquqi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida elektron mehnat shartnomasi institutining shakllanish jarayoni va uning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda elektron shartnomalarga oid normalar, yagona milliy mehnat tizimining joriy etilishi hamda Prezident farmonlari va qarorlarining mazkur institutni shakllantirishdagi o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: hujjat, mehnat shartnoma, raqamlashtirish, elektron shartnoma

An‘anaviy mehnat shartnomalarining shakllanishi va qo‘llanilishi mehnat huquqi tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari bilan bevosita bog‘liqdir. Sanoat inqilobi davrida ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat aloqalari ko‘pincha og‘zaki kelishuvlarga asoslangan bo‘lsa-da, XX asr boshlariga kelib, mehnat qonunchiligi rivojlanib borgani sayin yozma shartnomalarga ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa Yevropa mamlakatlarida mehnatni muhofaza qilishga oid ilk qonunlar qabul qilingach, yozma hujjatlashgan mehnat munosabatlari keng miqyosda amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

O‘zbekistonda esa yozma mehnat shartnomalari tizimi asosan Sovet Ittifoqi davrida huquqiy asos topdi. O‘sha davrda ishga qabul qilishda yozma shakldagi mehnat



shartnomasini tuzish majburiy holga aylantirildi. Bu shartnomalar odatda qog'ozda rasmiylashtirilib, unga mehnat daftarchasi, buyruqlar hamda boshqa zarur me'yoriy hujjatlar ilova qilingan. Har bir hujjat yuridik kuchga ega bo'lishi uchun belgilangan tartibda tasdiqlanib, imzolangan va arxivda saqlangan. Hozirgi vaqtda esa bu soha raqamli muhitga moslashtirilib, mehnat shartnomalarini elektron ravishda tuzish va ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilmoqda.

Elektron mehnat shartnomalari huquqiy maqomiga ko'ra elektron hujjat sanaladi. Yuridik terminlar lug'atiga qaraydigan bo'lsak, elektron hujjat tushunchasiga elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatni uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan axborot deya ta'rif berilgan¹.

So'nggi yillarda, mamlakatimizda elektron mehnat shartnomalarini tuzish va yuritish jarayoni normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solindi. Ushbu tizimning huquqiy asoslari, eng avvalo, 2023-yilda kuchga kirgan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida o'z ifodasini topgan. Mazkur kodeksga ko'ra, mehnat shartnomalari nafaqat an'anaviy yozma shaklda, balki elektron formatda ham rasmiylashtirilishi mumkin. Bu esa elektron shakldagi shartnomalarning qonuniy kuchga ega hujjat sifatida tan olinayotganini anglatadi. Kodeksda ishga qabul qilish, shartnomani tuzish, unga o'zgartirishlar kiritish va uni bekor qilish tartiblari belgilangan bo'lib, bu amaliyot elektron shaklda ham amalga oshirilishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, elektron hujjatlarning yuridik kuchini kafolatlovchi asosiy huquqiy manbalardan biri bu — "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonundir. Ushbu qonunga binoan, elektron raqamli imzo (ERI) bilan imzolangan hujjatlar yozma shakldagi hujjatlar

¹ Yuridik terminlar izohli lug'ati(faol termin va tushunchalar) [Matn]: lug'at/ Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 69 b.



bilan tenglashtiriladi². Shu sababli, elektron tarzda tuzilgan mehnat shartnomasi ham to'laonli huquqiy hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, xodimlarning mehnat huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish hamda ularning mehnat stajini to'g'ri yuritishni ta'minlash maqsadida, 2019-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan PQ-4502-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, "Yagona milliy mehnat tizimi" (qisqacha YaMMT) deb nomlangan idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy etildi³. Mazkur tizim Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tarkibida tashkil etilgan maxsus direksiya tomonidan boshqariladi. YaMMT orqali xodimlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar yagona elektron bazada yuritilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur Prezident qaroriga asosan, 2019-yil 5-dekabr kuni Hukumat tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida elektron mehnat shartnomalarini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, elektron mehnat daftarchalarini shakllantirish va yuritish tartibini belgilovchi Nizom (VMQ-971-son) tasdiqlandi. Ushbu normativ hujjat orqali YaMMT doirasida ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida mehnat shartnomalarini elektron shaklda rasmiylashtirish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ilgari qog'oz shaklida tuzilgan shartnomalarni elektron ro'yxatga olish, mehnat daftarchalarini elektron tarzda yuritishning aniq tartibi belgilab qo'yildi.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bandida 2020 yil 1 yanvardan boshlab yangi mehnat shartnomalarini tuzish, amaldagi mehnat shartnomalariga o'zgartirish kiritish, shuningdek, ularni tugatish holatlarini "YaMMT" IDAKda majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etilgan, 2020-yil 1-yanvarga qadar tuzilgan amaldagi mehnat shartnomalari 2020-yil 1-sentabrdan kechiktirmasdan "YaMMT" IDAKda ro'yxatdan o'tkazilishi

² <https://lex.uz/ru/docs/-165079>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-4574228>



shartligi, Mehnat shartnomalarini “YaMMT” IDAKda ro‘yxatdan o‘tkazish belgilangan tartibda ish beruvchi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan⁴.

Ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini elektron ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ish beruvchi tomonidan “Yagona milliy mehnat tizimi” (YaMMT) idoralararo dasturiy-apparat kompleksining shaxsiy kabinetiga kirish talab etiladi. Bunda kirish elektron raqamli imzo (ERI) kaliti orqali amalga oshiriladi.

Xodimni ishga qabul qilishdan avval, tizimda tegishli ish o‘rni yaratilishi kerak. Ish beruvchi tomonidan ish o‘rni shakllantirilgach, u orqali mehnat shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish amalga oshiriladi. Buning uchun tizimda tanlangan ish o‘rniga mos ravishda “Xodimni rasmiylashtirish” tugmasi bosilishi lozim. Xodimni rasmiylashtirish tugmasini bosgandan so‘ng xodimning passport ma‘lumotlarini to‘ldirish uchun shakl ochiladi. Xodimning passport ma‘lumotlari muvaffaqiyatli kiritilgandan so‘ng xodim haqida ma‘lumot paydo bo‘ladi. So‘ngra, xodimning ma‘lumotlari kiritilgandan so‘ng mehnat shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun oyna ochiladi. Bu oynada mehnat shartnomasi raqami, uning tuzilgan sanasi, ish boshlanadigan sana, stavka, buyruq raqami va sanasi kabi ma‘lumotlar aks etadi. Barcha ma‘lumotlarni kiritgach imzolash va saqlash talab etiladi. Mehnat shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligini imzolash uchun, tashkilotning tegishli ERI kaliti tanlanadi. Mehnat shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazgandan so‘ng xodim bosh sahifada ko‘rinadi.

Yuridik kuch nuqtayi nazaridan, elektron mehnat shartnomalari an‘anaviy, ya‘ni qog‘oz shaklida tuziladigan shartnomalar bilan teng huquqiy maqomga ega. An‘anaviy mehnat shartnomalari odatda tomonlarning qo‘l bilan qo‘ygan imzolari orqali tasdiqlanadi. Elektron shakldagi shartnomalarda esa imzolash jarayoni elektron raqamli imzo (ERI)

⁴ <https://lex.uz/docs/-4630020>



yordamida amalga oshiriladi. Bu esa elektron hujjatni ham yozma shakldagi hujjat bilan tenglashtiradi.

Har ikki turdagi shartnomalar ham Mehnat kodeksiga asoslangan holda yuridik kuchga ega bo'lib, elektron shakldagi shartnomalarning qonuniy asoslari, qo'shimcha ravishda, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi hamda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunlar bilan mustahkamlangan. Ya'ni, agar mehnat shartnomasi elektron tarzda rasmiylashtirilgan bo'lsa-yu, u ERI bilan imzolangan bo'lsa, u holda ushbu hujjat rasman qonuniy hisoblanadi.

Hujjat aylanishi jihatidan esa farq mavjud: an'anaviy shartnomalar qog'ozda yuritiladi va odatda arxivlarda saqlanadi. Elektron shartnomalar esa raqamli tizim orqali boshqariladi va markazlashgan elektron bazada saqlanadi. Bu esa ma'lumotlarni tezkor izlash, monitoring qilish va yangilash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, elektron va an'anaviy shakldagi mehnat shartnomalari to'laqonli bir xil huquqiy kuchga ega. Shu sababli, mehnat kodeksida elektron mehnat shartnomalari tushunchasiga ta'rif berib ketilishi taklif qilinadi. Bundan tashqari, yagona milliy mehnat tizimiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy qilish lozi. Sun'iy intellekt ish beruvchi va xodimlar o'rtasida tuzilayotgan mehnat shartnomalarini monitoring qilib boradi va qandaydir qonunga zid harakatlar amalga oshirilganda (soxta ma'lumotlar kiritish, mavjud bo'lmagan yoki vafot etgan shaxslarni tizimga kiritish) bu haqida nazorat qiluvchi organlarga xabar beradi. Shu orqali, mehnat munosabatlarini raqamli muhitda aniq va ishonchli yuritishga erishiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuridik terminlar izohli lug'ati (faol termin va tushunchalar) [Matn]: lug'at/ Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 336 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019, № 07/19/4502/3977.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy qilinishini va uning ishlashini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2019, № 09/19/971/4114.
4. O'zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2004, № 20 (104).